

Uzbekistan Airways TXY-2022 ishtirok etmoqda

2022 30 Noyabr

Bugun, 30-noyabr “Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyati bosh hamkori bo‘lgan Toshkent xalqaro turizm yarmarkasi (TXY) – “Ipak yo‘lida turizm” ochilishi bo‘lib o‘tdi.

Uch kun davomida aviakompaniya o‘zining muntazam mahalliy va xalqaro yo‘nalishlardagi yo‘lovchi, shuningdek, vertolot turlarini imkoniyatlarini taqdim etadi. Mijozlar bazasining ko‘paytirish, B2B uchrashuvlar, davra suhbatlari – bularning barchasi TXY-2022 xalqaro yarmarkasidan kutilayotgan natijalar. Yarmarka doirasida bir nechta uchrashuvlar bo‘lib o‘tadi, unda Uzbekistan Airways aviakompaniyasining elchisi Sevara Nazarxon, travel bloggeri Xusnora Shadiyeva ishtirok etadi, shuningdek, Istanbulga ikkita chipta, vertolyot parvozi vaucheri, sadoqatlik kartalariga ballar va samolyot modellari o‘ynaladi.

Toshkent xalqaro turizm yarmarkasi – “Ipak yo‘lidagi turizm” 2022-yilning 30-noyabrdan 2-dekabrgacha bo‘lib o‘tadi.